

DUNYO MUZEYLARINING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIDA

Usmonova R – Qarshi davlat universiteti dotsenti

Nuruddinova N – Qarshi davlat universiteti talabasi. O`zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada muzey tushunchalari bayon etilgan. Dunyo muzeylarining paydo bo`lishi va rivojlanish sharoitlari hamda tarixiy, madaniy yodgorliklarida foydalanib muzeylar tashkil etishning geografik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Bundan tashqari dunyoning ba`zi mashhur muzeylari va unda saqlanayotgan resurslarining xususiyatlari haqida ma`lumotlar berilgan. Muzeylarni ta`lim tarbiyaviy roli yoritilgan.

Kalit so`zlar: muzey, muzalar uyi, Iskandariya kutubxonasi, museyon, Xalqaro muzey kuni, ko`rgazma, kutubxona, tasviriy san`at, qo`lyozmalar.

О ВОЗНИКНОВЕНИИ И РАЗВИТИИ МУЗЕЕВ МИРА

Усмонова Р. – доцент, Каршинский государственный университет

Нурудинова Н. – студентка Каршинского государственного университета.

Узбекистан.

Аннотация: В статье изложены понятия музея. Изложены условия возникновения и развития музеев мира, а также географические особенности создания музеев с использованием исторических и культурных памятников. Кроме того, представлена информация о некоторых известных музеях мира и особенностях хранящихся в них ресурсов. Освещена образовательная роль музеев.

Ключевые слова: музей, дом муз, Александрийская библиотека, музей, Международный день музеев, выставка, библиотека, изобразительное искусство, рукописи.

ON THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF WORLD MUSEUMS

Usmonova R – Associate Professor, Karshi State University

Nuruddinova N – Student, Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: The article describes museum concepts. The conditions for the emergence and development of world museums, as well as the geographical features of organizing museums using historical and cultural monuments, are described. In addition, information is provided about some of the world's famous museums and the characteristics of the resources stored in them. The educational role of museums is highlighted.

Keywords: museum, House of the Muses, Library of Alexandria, museion, International Museum Day, exhibition, library, fine arts, manuscripts.

Kirish. Muzeylar moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallarni to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi, natijalarni esa ekspozitsiya sifatida ommalashtirishda ahamiyati kattadir. Muзей tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasadir.

Asosiy qism. Muзей (yunoncha: - “muzalarga bag'ishlangan joy”) madaniyat, san'at, adabiyot, fan, saroy, ilohiy bino, uy, joy ma'nosini anglatadi. Qadimgi Yunonistonda «museion» deb ma'budalar sha'niga e'zozlanadigan maskanlarni aytganlar. «Muzeun» – bu go'zal buyumlar saqlanadigan, ilhom parilari to'planadigan joy [6;7]. Ba'zi manbalarda qadimgi Yunonistonda «museion» deb ma'budalar sha'niga e'zozlanadigan, tabiatning go'zal joylari va so'lim maskanlarni aytganlar. O'lkani va unda mavjud bo'lgan tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, o'rganish va ulardan foydalanish har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi.

Jahondagi dastlabki Museyon ya'ni ma'bud - yoki muzalar, ilhom parilarining uyi miloddan avvalgi 290-yilda paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, A.Makedonskiy (Iskandar Zulqaynar)ning Ptolomey I Soter degan sarkardalaridan biri miloddan oldingi III asrda dastlabki muzeyga asos solganligi taxmin qilinadi. Iskandariyada Ptolemey davridan boshlab (miloddan avvalgi 285-246-yillar) birinchi zoologik park tashkil etilgan. Bu muzeyning oldida botanika va hayvonot bog'i bo'lib, u yerda botanik va zoologik tadqiqotlar o'tkaziladigan ilmiy markaz bo'lgani haqida ba'zi manbalarda uchratish mumkin. Mashhur Iskandariya muzeyi o'z davrining olimlar va faylasuflari uchun “Muzalar ibodatxonasi” bilim maskani bo'lib, Iskandariya kutubxonasi-muzeyi tashkil etilgan. Iskandariya muzeyi dunyodagi eng qadimgi muzeylardan biri hisoblanadi. Muзей kutubxonadan boshqa binoda bo'lganmi yoki kutubxona majmuasining bir qismi bo'lganmi, aniq emas. Muзей haqida kam

narsa ma'lum bo'lsa-da, u Uyg'onish davrining dastlabki davridagi muzeylar uchun ilhom manbai bo'lgan [1;344 p.].

Muzey tushunchasi dastavval XV asrda kirib kelgan bo'lsada, ammo muzey deb antik davr yodgorliklar to'plamlari va san'at asarlariga, tabiatning namunalari va barcha noyob narsalarga aytilgan. Keyinchalik XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab "muzey" atamasi ularda saqlanayotgan, ilmiy izlanishlar olib boriladigan va namoyish etiladigan binoga nisbatan ishlatila boshlandi. XX asrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar jamiyat hayotining barcha sohalarida o'zgarishlarni yuz berishiga olib keldi. Dastlab muzeylar faqat "nozik didlilar" uchun bo'lsa, so'ngra aholining barcha qatlamlari uchun baravar ochiq xizmat qildi [2;160 b.].

Eng qadimgi muzeylardan biri Neo-Babil imperiyasida (m. a. 530 y. Iroqda) malika Ennigaldi tomonidan qurilgan, Mesopotamiya sivilizatsiyalariga oid artefaktlarni o'z ichiga olgan Ennigaldi-Nanna muzeyidir. Muzeylar Kritdagi miloddan avvalgi 16-asrda Knos saroy xazinasi, miloddan avvalgi 13-12-asrlarda Vanlar saroyi va ink kohinlarining arxivi Xitoyda, miloddan avvalgi 1-asrda Nineviya saroy kutubxonasi va boshqalar tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo'jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlangan.

Keyinchalik asosan xususiy to'plamlarda (miloddan avvalgi 3-asrdan) asosan san'at asarlari va to'plamlari jamlangan. Muzeylar o'zlarining ilk paydo bo'lgan kundan boshlab o'z zamonasini aks ettirgan va talab-ehtiyojlarni ifoda qilgan, qisqacha qilib aytganda, zamon ko'zgusi bo'lgan.

Turli xil qiziqarli, nodir narsalarni, san'at buyumlarini to'plash va namoyish qilish qadimdan insoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib kelgan. 18-19-asrlardan muzeylarning shakllanishi va rivojlanishi ilmiy-tadqiqot ishlari, fond va ekspozitsiya va ko'rgazma faoliyatiga asoslangan zamonaviy madaniyat muassasalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Quyidagi 1-rasmda dunyoning ba'zi mashhur muzeylarining ko'rinishi berilgan.



1-rasm. a) Fransiya (Parij)dagi Luvr muzeyi; b) Rossiya (Sankt-Peterburg)dagi **Emitaj muzeyi**; c) Qohiradagi Misr muzeyi; d) AQSH (Nyu-York)dagi Metropolitan san`at muzeyi [8;9;].

Muzeylar dunyoning turli mamlakatlariga o`z eksponatlarini yuborish bilan birga, chet mamlakatlarning ko`rgazmalarini ham o`zlarida qabul qiladi va ko`rgazma namoyishlarini tashkil etadi. Zero, muzeylar xalqaro madaniy-ma`rifiy aloqalarni kengaytirishga, xalqlar o`rtasida milliy madaniyatlarning o`zaro aloqasini rivojlantirishga yordam beradi. Butunjahon muzeylari xalqaro tashkilotga birlashgan bo`lib, YUNESKO tarkibida Muzeylar xalqaro kengashi (ICOM) mavjud. 1977 yildan buyon 18-may butun dunyoda “Xalqaro muzeylar kuni” sifatida nishonlanadi. Xalqaro muzeylar tarkibiga milliy Muzeylarning qo`mitalari ro`yxatga olingan. Yig`ilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos bo`lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot va ilmiy hamda madaniy ma`rifiy ta`lim tarbiya ishlarini olib boradi [4;434-440 b.]. Quyidagi 1-jadvalda dunyoning ba`zi mashhur muzeylarining paydo bo`lishi haqida ma`lumotlar berilgan.

1-jadval

Muzeylarning paydo bo`lish bosqichlari

№	Tashkil etilgan bosqichlari	Muzeyning geografik o`rni	Muzey nomlari	Muzey eksponatlari turi
1.	miloddan avvalgi 16-asrda	Krit orollari	Knos saroyi	saroy xazinas
2.	miloddan avvalgi 13-12-asrlarda	Xitoy	Vanlar saroyi	Vanlar saroyi va ink kohinlarining arxivi
3.	miloddan avvalgi 1-asrda	Iroq	Nineviya saroy kutubxonasi	kutubxona to`plami
4.	mil. av. 3-asrdan	Yevropa	Varres, Sulla galereyalari, Serviliy, Krase, Lukull, Pompei,	san`at asarlari va to`plamlari

			Sezar	
5.	Uygʻonish davriga	Yevropa	Tashkil etilgan barchasi	xayvonot va oʻsimlik dunyosi namunalari, minerallar, geodeziya va astronomiya asboblari
6.	15-asr	Italiya	Florensiya, Medichi,	antik davr yodgorliklari toʻplamlari
7.	1546-yil	Fransiya	Luvr	qadimgi Misr, Yunoniston va qadimgi Rimda yaratilgan noyob sanʼat durdonalarining asl nusxalari saqlanadi.
8.	1560-yillar	Italiya	Uffizi galereyasida	Raphael, Mikelanjelo va Leonardo da Vinchi, Lippi va Botticellilarning asarlaridan iborat.
9.	16-asr	Yevropa	Rim, Vatikan muzeyi	antik davr yodgorliklari toʻplamlari
10.	16-asr	Yevropa	Drezden, Avgust Saksonskiy	antik davr yodgorliklari toʻplamlari
11.	17—18-a. larda	Yevropa va b.	xususiy toʻplamlar	tarixiy, arxeologik, tabiatshunoslik, sanʼatshunoslik
12.	18-a. oxirlarida	Ispaniya	Prado	Bosch, Goya, El Greco va Velasquez asarlarining eng toʻliq toʻplamlari saqlanadi.
13.	19-a.	Rossiya	A.S. Pushkin	Frantsuz impressionistlari asarlarining qimmatbaho toʻplamlari, Gʻarbiy Yevropa rasmlari toʻplamlari
14.	1852-yil	Rossiya	Ermitaj	Gollandiyalik va Flaman rassomlarining asarlari, Ketrin II ning shaxsiy kolleksiyasi hamda badiiy va tarixiy manbalar toʻplami

*Internet maʼlumotlar asosida R. Usmanova (2023 y) tomonidan tuzilgan [6:192 b.]

Bugungi kunda muzeylarning jamiyat va inson hayotidagi oʻrni beqiyosdir. Oʻtmishni, tarix tajribasini oʻrganishda ajdodlar yaratgan betakror moddiy va maʼnaviy merosni asrashda hamda targʻib etishda muzeylar faoliyati muhim ahamiyati kasb etadi [3;198 b.]. Muzey turlari koʻp jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya fondlarining xarakteriga va ular faoliyatining yoʻnalishiga bogʻliqdir. Ijtimoiy vazifasiga koʻra ilmiy tadqiqot-maʼrifiy va oʻquv muzeyiga boʻlinadi. Sohalar boʻyicha tarix, qishloq xoʻjaligi, tabiatshunoslik, sanʼatshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa muzeylarga boʻlinadi. Shu bilan birga memorial va oʻlkashunoslik kabi muzey turlari bor. Muzey ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlarni olib borishi bilan birga, qadimiy toʻplamlarni, qadimiy sanʼat, madaniyat asarlarining yigʻadi va oʻrganadi, ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini

saqlash va ta'mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo'l-ko'rsatkichlar nashr etadi, zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Bu yerdan turib o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin [5;192 b.].

Xulosa. Muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va madaniy - ma'rifiy ta'lim tarbiya ishlarini olib boradi. Har qanday davlatda mavjud bo'lgan tarixiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, o'rganish va ulardan foydalanish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Muzeylar xalqning milliy g'ururi bo'lgan tarixiy yodgorliklarni avaylab asrashga, ilm-fanni, millat madaniyatini yanada rivojlantirish uchun ham bebaho durdona ekanligini anglash va yosh avlodni tarbiyalashda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Genoways, Hugh; Andrei, Mary Anne, eds. Museum Origins: Readings in early museum history and philosophy. 2008 y. 344 p.
2. Kuryazova D. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.2007 y. 160 b.
3. Ochildiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik // O'quv qo'llanma. T.: 2020. 198 b.
4. Usmanova R., Ismatullayeva F. O'lkashunoslik muzeylarining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni. // "Экономика и социум" №3(118)-1 2024 www.iupr.ru. 434-440 b.
5. Usmanova R., va b. O'lkashunoslik // O'quv qo'llanma. QarshiDU, 2022 y. 192 b.